QORAQALPOG‘ISTON
RESPUBLIKASI STATISTIKA
BOSHQARMASI





# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR-AVGUST*
*(DASTLABKI MA’LUMOT)*



**Sanoat statistikasi bo‘limi**
**Tel.: 61-222-75-87**

# Qoraqalpog‘iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-avgust oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-avgust oylarida respublika korxonalari tomonidan 11396,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 100,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 85,7 % ni tashkil etdi.

| 0,8 % | 85,7 % | 12,8 % | 0,7 % |
|---|---|---|---|
| B | C | D | E |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

| | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust |
|---|---|---|
| B | 7,6 % | 101,6 % |
| C | 112,7 % | 100,1 % |
| D | 134,7 % | 100,7 % |
| E | 88,2 % | 124,3 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatning – 1,6 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 0,1 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 0,7 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 24,3 % ga o'sishi kuzatildi.*

## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**yanvar-avgust**

**2022- yil**
**88,4 mlrd. so'm**

**2022- yil**
**101,6 %**

**2021- yil**
**49,5 mlrd. so'm**

**2021- yil**
**7,6 %**

**2020- yil**
**77,8 mlrd. so'm**

**2020- yil**
**18,8 %**

**B**

*Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 88,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**

**2021- yil**
**B**
**0,5 %**

**2022- yil**
**B**
**0,8 %**

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*




| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Ohah tosh, ming t. | 108,9 | 155,9 | 47,0 |







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 1348,7 | 927,0 | -421,7 |
| Gaz kondensati, ming t. | 64,6 | 54,1 | -10,5 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat







*2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8633,2 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,7 % ini tashkil etdi.*

**2021-yil yanvar-avgust** 85,4 %

**2022-yil yanvar-avgust** 85,7 %

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yil yanvar-avgust 1,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 63,2 % (67,7 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 4,6 % (3,7 %) va quyi texnologiyalisi – 32,0 % (27,3 %) ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 63,7 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 98,7 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 14,7 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 102,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,9 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 112,4 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,5 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 120,8 %) tashkil etdi.*

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**
*O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

**Aroq**




**Paxta chigiti**




**Sement**




**O'simlik yog'i (tozalangan)**




**Kalava ip**




**Yumshoq bug'doy va spelta uni**



2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 1,4 ming tonna tozalangan guruch (2021- yilning mos davriga nisbatan 20,0 % ga), 19,5 ming tonna paxta tolasi (18,8 %), 194,3 ming tonna portlandsement (16,1 %), 27,9 ming tonna paxta chigiti (8,8 %) ishlab chiqarilib, yuqori oʻsish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, 75,4 ming tonna yumshoq bugʻdoy va spelta uni (7,2 % ), 9,5 ming tonna kalava ip (10,7 %), 2235,6 ming litr aroq (10,3 %) va 1,9 ming tonna tozalangan oʻsimlik yogʻi (59,2 %) ishlab chiqarilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| | | | |
| **Aroq,** ***ming litr 100 % li spirt*** | 2493,2 | 2235,6 | -257,6 |
| **Polietilen,** ***ming t.*** | 221,6 | 201,4 | -20,2 |
| **Polipropilen,** ***ming t.*** | 62,6 | 56,5 | -6,1 |
| **Yumshoq bugʻdoy va spelta uni, ming t.** | 81,3 | 75,4 | -5,9 |
| **Paxta tolasi, ming t.** | 16,4 | 19,5 | 3,1 |
| **Oʻsimlik yogʻi (tozalangan), ming t.** | 4,6 | 1,9 | -2,7 |

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 67,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 117,5 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 63,2 % ni, fizik hajm indeksi 98,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 6169,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-avgust oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 92,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,5 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 20,8 % ga o‘sgan va ishlab chiqarish hajmi 340,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 97,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,5 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 12,9 % ga o‘sgan va ishlab chiqarish hajmi 1413,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-avgust oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 128,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqa-rishning ulushi 1,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 105,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 135,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-avgust oylarida to‘qima-chilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 113,5 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 2,5 % ga kamaygan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 1324,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021- yil yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 82,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 %, fizik hajm indeksi 150,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 105,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1458,2 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,8 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,7 % ga oshganligi kuzatildi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln.kVt.s** | 3313,1 | 3668,2 | 355,1 |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | 39,5 | 30,6 | -8,9 |
| **Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, *mln. so‘m*** | 64189,0 | 72076,3 | 7887,3 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 81,3 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.




### Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 5089,6 | 5849,0 | 759,4 |
| **Xavfsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 10634,1 | 11956,4 | 1322,3 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 41313,4 | 43591,1 | 2277,7 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar – 5,5 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar – 14,9 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig’ish bo‘yicha xizmatlar – 12,4 % ga oshganligi kuzatildi.

# Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1880,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,4 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 16,5 % ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari

**2021-yil yanvar-avgust** — **59,3 %**

**2022-yil yanvar-avgust** — **65,9 %**

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

**2021-yil yanvar-avgust** — **40,7 %**

**2022-yil yanvar-avgust** — **34,1 %**

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 7,0 % (2021- yil yanvar-avgust oylari 6,2 %) ni tashkil etdi.*

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 19,1 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 12,8 % ni, Ellikqal’a tumani 10,3 % ni, To‘rtko‘l tumani 8,7 % ni, Beruniy tumani 7,0 % ni, Xo‘jayli tumani 6,9 % ni, Amudaryo tumani 6,7 % ni va Chimboy tumani 6,0 % ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’ati respublika o‘sish sur’ati (110,4 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Shumanay (178,4 %), Qorao‘zak (162,7 %), Ellikqal’a (146,3 %), Mo‘ynoq (134,9 %), Amudaryo (129,5 %), Nukus (123,4 %), Chimboy (123,0 %), Taxiatosh (120,1 %), Xo‘jayli (115,3 %) hamda Beruniy(113,0 %) tumanlarida qayd etildi.*

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 19,1 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 12,8 % ni, Ellikqal’a tumani 10,3 % ni, To‘rtko‘l 8,7 % ni, Beruniy tumani 7,0 % ni, Xo‘jayli tumani 6,9 % ni va Amudaryo tumani 6,7 % ni tashkil etdi.*




*1578,4 mlrd. so‘m*
*2020- yil*

*1635,4 mlrd. so‘m*
*2021- yil*

*1880,3 mlrd. so‘m*
*2022- yil*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2020-yil** **103,2 %**

**2021- yil** **103,4 %**

**2022- yil** **110,4 %**

## Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

*Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Ellikqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 20,3 % ni, shuningdek, Nukus shahri 13,5 % ni, To'rtko'l tumani 9,7 % ni, Xo'jayli tumani 9,6 % ni, Amudaryo tumani 6,9 % ni hamda Shumanay tumani 6,7 % ni tashkil etdi.*

**591,1** mlrd. so'm
2020- yil

**665,1** mlrd. so'm
2021- yil

**641,3** mlrd. so'm
2022- yil




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2020- yil 101,3 %

02 2021- yil 105,0 %

03 2022- yil 102,8 %



## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqa-rilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 22,0 %, shuningdek, Taxiatosh tumani 17,3 % ni, To‘rtko‘l 8,2 % ni, Beruniy 7,2 % ni, Chimboy 6,5 % ni, Xo‘jayli 5,4 % ni hamda Xo‘jayli 5,3 % ni tumanlari tashkil etdi.




*987,3 mlrd. so‘m*
*2020- yil*

*970,3 mlrd. so‘m*
*2021- yil*

*1239,0 mlrd. so‘m*
*2022- yil*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2020- yil 104,4 %

02 2021- yil 101,8 %

03 2022- yil 114,8 %

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 56,5 %), Taxiatosh (13,2 %), Qo‘ng‘irot (4,4 %), To‘rtko‘l (3,6 %), Amudaryo va Beruniy (3,2 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.*

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi**

**2020- yil** — 8702,6 mlrd. so‘m

**2021- yil** — 10632,6 mlrd. so‘m

**2022- yil** — 11396,0 mlrd. so‘m



**2020- yil** — 101,3 %

**2021- yil** — 107,5 %

**2022- yil** — 100,4 %



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (19472,9 ming so‘m) va Taxiatosh tumanida 19816,0 ming so‘m) o‘rtacha Respublika darajasi ko‘rsatkichidan (5827,8 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*




### Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**2020- yil** — 4570,3 ming so‘m

**2021- yil** — 5515,1 ming so‘m

**2022- yil** — 5827,8 ming so‘m



01 — 2020- yil — 100,1 %

02 — 2021- yil — 106,2 %

03 — 2022- yil — 99,0 %

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Respublika bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 961,6 ming so‘m bo‘lgani holda, Taxiatosh tumanida 3177,5 ming so‘mni, Taxtako‘pir tumanida 1883,2 ming so‘mni, Ellikqal'a tumanida 1177,3 ming so‘mni, Shumanay tumanida 1051,2 ming so‘mni va Xo‘jayli tumanida 1024,3 ming so‘mni tashkil etdi.

### Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**2020- yil** — 828,9 ming so‘m

**2021- yil** — 848,3 ming so‘m

**2022- yil** — 961,6 ming so‘m



**2020- yil** — 102,0 %

**2021- yil** — 101,9 %

**2022- yil** — 108,8 %



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2147,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 18,8 % ni tashkil etdi.*




### Qoraqalpog'iston Respublikasi

**2020- yil** — 1847,0 mlrd. so'm

**2021- yil** — 1942,5 mlrd. so'm

**2022- yil** — 2147,1 mlrd. so'm



**2020- yil** — 21,2%

**2021- yil** — 18,3 %

**2022- yil** — 18,8 %

## Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda respublikada 3434 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1938 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 56,4 %) Nukus shahriga 683 tasi (19,9 %), To‘rtko‘l 352 tasi (10,2 %), Amudaryo 313 tasi (9,1 %), Ellikqal'a 296 tasi (8,6 %) Beruniy 294 tasi (8,6 %) tumanlariga to‘gri kelmoqda.

| | yangi tashkil etilgan | faoliyat yuritayotgan |
|---|---|---|
| Amudaryo | 49 | 313 |
| Beruniy | 33 | 294 |
| Bo‘zatov | 12 | 52 |
| Qorao‘zak | 11 | 168 |
| Kegeyli | 15 | 93 |
| Qo‘ng‘irot | 48 | 212 |
| Qonliko‘l | 9 | 71 |
| Mo‘ynoq | 18 | 144 |
| Nukus t. | 15 | 104 |
| Taxiatosh | 26 | 132 |
| Taxtako‘pir | 18 | 95 |
| To‘rtko‘l | 57 | 352 |
| Xo‘jayli | 22 | 197 |
| Chimboy | 21 | 129 |
| Shumanay | 16 | 99 |
| Ellikqal'a | 89 | 296 |
| Nukus sh. | 66 | 683 |

### Jami yangi tashkil etilgan

- 2020-yil: 454 dona
- 2021- yil: 573 dona
- 2022- yil: 525 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

- 2020- yil: 2610 dona
- 2021- yil: 3255 dona
- 2022- yil: 3434 dona